

Tumanda 2024-yil 3-chorak yakunlariga ko'ra jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar to'g'risidagi hisobotini tasdiqlash haqida



Tumanda 2024-yil 3-chorak yakunlariga ko'ra jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar to'g'risidagi hisobotini tasdiqlash haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi "Tashabbusli budjet jarayonlarini o'tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to'g'risida"gi nizomni tasdiqlash to'g'risida KQ-666-VI-sonli qarori ijrosini ta'minlash yuzasidan tuman hokimligi tomonidan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga mablag'larni yo'naltirish hamda ushbu mablag'lardan maqsadli foydalanilishini ta'minlash bo'yicha tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i G'.Saidovning hisobotini mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi yig'ilishi muhokamasida bildirilgan takliflarni e'tiborga olib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 6, 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi**:

1. Tuman hokimligi tomonidan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga mablag'larni yo'naltirish hamda ushbu mablag'lardan maqsadli foydalanilishini

ta'minlash bo'yicha tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i G'.Saidovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2024-yil 3-chorakda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar, ya'ni tashabbusli budjetlashtirish natijalari bo'yicha ma'lumotlar 1-ilovaga asosan;

2024-yil 3-chorakda o'tkazilgan tashabbusli budjet jarayoni yakunlariga ko'ra Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi hisobidan loyihalarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar to'g'risidagi ma'lumot 2-ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (G'.Saidov) hamda tuman g'aznachilik bo'linmasi (A.Mingniyozov)lar shartnomalarga muvofiq yakuniy mablag'larga nisbatan bo'shab qolgan (iqtisod qilingan) qismini jamg'armaga belgilangan tartibda qayta tiklash va tashabbusli budjetlashtirish natijalari bo'yicha hisobotlarni "Ochiq budjet" axborot portaliga joylashtirib borish vazifalari yuklatilsin.
4. Tuman hokimligi hokimligi axborot xizmati (A.Bo'riyev) keltirilgan ilovalarga muvofiq shakllarda "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga yo'naltiriladigan mablag'lar miqdorini hamda ushbu mablag'lardan maqsadli va samarali ishlatilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni tumanning rasmiy veb-saytlariga joylashtirish va har chorak yakunlariga ko'ra joylashtirib borish vazifasi topshirilsin.
5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (Yu.Umbarov), ijrosini ta'minlash moliya iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari U.Panjiyev zimmasiga yuklatilsin.
6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

1-ilova

Qiziriq tumani bo'yicha Tashabbusli budjetlashtirish natijalari yuzasidan

MA'LUMOT

2024 yil oktabr (oy)

- T/r Ko'rsatkich nomi
1. Yil (Chorak) boshiga qoldiq

Shundan avvalgi mavsumlarda g'olib bo'lgan loyihalar uchun ajratilishi lozim bo'lgan, qayta taqsimlanmagan mablag'.
 2. Hisobot davrida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'
 3. Fuqarolar tashabbusi jamg'armasidan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan
 - 3.1 Bajarilgan ishlar uchun hisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag'
 - 3.2 Hisobvaraqlardagi qoldiq
 4. Fuqarolar tashabbus jamg'armasida qoldiq mablag'

T/r	Bajarilgan tadbirlar nomi	Moliyalashtiril-gan takliflar soni	ko'rsatkichlar	
			o'lchov birligi	miqdo
1	Hududiy ichki yo'llar	7	umumiy uzunligi	10 84
2	Umumiy ta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash	1	soni	1

3	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		soni	
4	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	6	soni	6
5	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	1	soni	1
6	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash		umumiy uzunligi	
7	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish tadbirlari		soni	
8	Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish)	1	umumiy uzunligi	1
9	Boshqa tadbirlar soni	1	soni	1

2-ilova

Qiziriq tumani bo'yicha Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi hisobidan loyihalarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar to'g'risida

MA'LUMOT

T/r	Tadbirning xos raqami (ID)	Loyihaning qisqacha mazmuni (sohasi)	Loyihaning moliya Moliyalashtirish uchun hisobvaraqlari
1	032300214009	Zarbdor mahallasi Taraqqiyot ko'chasi 1 km, Oybek ko'chasi 1.5 km, Ibn Sino ko'chasi 0.5 km, Cho'lpon ko'chasi 0.5 km asfalt yotqizish	4017228602221570
2	032331828009	Qiziriq tumani Yakka terak mahallasidan o'tuvchi 4H-1593 "Istara q.-Dexqonobod q." avtomobil yo'lining 5-8 kmlar oralig'ining 3 km qismiga asfalt qoplama yotqizish.	4017228602221570
3	032302560009	Zaribdor mahallasi Alisher Navoiy, Erkin Voxidov, Sharof Rashidov, Abdullah Oripov ko'chalariga asfalt yotqizish	4017228602221570
4	032331804009	Qiziriq tumani 21- umumiy o'rta ta'lim maktabiga faollar zali qurish	4017228602221570
5	032312926009	Qiziriq tumani tibbiyot birlashmasiga qarashli shoshlilinch qabul bo'limini to'liq ta'mirlash	4017228602221570
6	032298094009	Qiziriq tumanidagi "Karmaki" va "Yangihayot" mahallalari hududidan o'tuvchi 4N-1593 "Istara.q-Dehqonobod.q" avtomobil yo'lining 2-4 kmlari oralig'ining 2,2 km qismiga asfalt qoplama yotqizish	4017228602221570

7	032328046009	Qiziriq tumani Rabotak MFY da jinoyatchilikni oldini olish hamda fuqarolarning tinch-totuv yashashlariga sharoit yaratib berish maqsadida mahalla hududiga to'liq kuzatuv kameralari o'rnatish va tuman IIB da tashkil etilgan Situatsion markazga integratsiya qilish	4017228602221570
8	03237597009	Qiziriq tumani SEOM bo'limini jihozlash	4017228602221570
9	032327628009	Qiziriq tumani Tibbiyot birlashmasini jihozlash	4017228602221570
10	032329987009	Qiziriq tumani Tibbiyot birlashmasini jihozlash	4017228602221570
11	048338008009	Zartepa mahallasi hududidan o'tgan katta kanal yoqasidagi ko'chani 4R 1594 Bo'ston-Yangiyo'l avtomobil yo'li tugagan qismidan(DARAKDAN) boshlab 2500 metr qismini sifatli asfalt qilish.	4017228602221570
12	048357619009	Pokdil ko'chasining 1942 metriga asfalt qoplamasini yotqizish.	4017228602221570
13	048334431009	Qiziriq tumani Yakkaterak mahallasidan o'tuvchi 4H-1593 "Istara q.-Dehqonobod q." avtomobil yo'lining 5-6 kmlar oralig'ining 1.0 km va Tinchlik ko'chasining 0-1 kmlar oralig'idagi 0.943 km qismlariga asfalt qoplama yotqizish.	4017228602221570
14	048357451009	Qiziriq tumani Tibbiyot birlashmasini jihozlash	4017228602221570
15	048357409009	Qiziriq tibbiyot birlashmasini uch qavatli binosini kapital ta'mirlash	4017228602221570

16	048357294009	Shodlik va Qishloqozon mahallalari tutashgan ko'chalarga yoritish chiroqlari va bezaklarini o'rnatish, yo'laklarga bruschatka yotqizish va kichik yo'lakchalar tashkil qilish.	40172286022215700
----	--------------	--	-------------------

17	048336479009	Qiziriq tumani sport maktab hududida 20x40 o'lchamli suniy qoplamali futbol maydoni qurish hamda mavjud futbol maydoni (bino inshoot, tribuna va boshqa) ta'mirlash	40172286022215700
----	--------------	---	-------------------

Ж А М И